

Saidova Lolaxon Maxammadjonovna*Teacher of Andijan State Institute of foreign languages.**tel :+998914855582***PLACES OF USE OF ANTHROPONYMS IN UZBEK**

Annotation: humanity has appeared that its name also exists. There is no person without a name. Names also have important spiritual and political significance in society. This article reflects on the places of use of anthroponyms being used in Uzbek. Keywords: Anthroponymy, anthroponymy, onomastics, noun, noun, lexical system

Annotatsiya: Insoniyat paydo bo'libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo'q. Ismlar jamiyatda muhim ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ushbu maqolada o'zbek tilida qo'llanilayotgan antroponimlarning ishlatilish o'rinlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar : Antroponim, antroponimika, onomastika, ism, nomlanish, leksik sistema

Аннотация: Человечество появилось, и его название тоже существует. Не существует безымянного человека. Имена имеют важное духовное и политическое значение в обществе. В данной статье рассматриваются места употребления антропонимов, используемых в узбекском языке.

Ключевые слова: Антропоним, антропонимика, ономастика, именование, лексическая система.

Antroponim – kishining atoqli oti, ismi. Antroponimika – leksikologiya (onomastika) ning kishi otlari (ismlari) ni o'rganuvchi bir bo'limi. Shaxs nomlari ham boshqa leksik birliklar singari o'zining umumiy va xususiy belgilari bilan bir leksik sistemaga birlashadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron planda sistem-struktur va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish yaxshi natijalar beradi.

Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham xabar beradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo'q. Ismlar jamiyatda muhim ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday shaklda bo'lmasin, kishilarni alohida shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Har bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Masalan, arabcha nomlar O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga islom dini bilan birga kirib keldi. Ismlar lingvostilistik jihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin.

Ism vazifasida qo'llanuvchi so'z onomastika ixtiyorida ba'zi qo'shimchalar, yordamchi shakllar va boshqa elementlarni qabul qiladi. So'zning ism sifatida funksional imkoniyatlari ham kengayadi. Masalan: Bo'riboy, Bo'rigul, Bo'riniso, Bo'rixon. . . kabi ismlarni tildagi turdosh ot bo'ri so'zining aynan o'zi deb bo'lmaydi. Ism sifatida qo'llanuvchi bo'ri aslida turdosh ot bo'lgan bo'ri (volk) dan yuzaga kelgan bo'lsa ham, u endi atoqli ot sifatida o'ziga xos semantik, nominativ va funksional belgilarga egadir. Xuddi shuningdek, Bobonor, Bozorgul, Jumamurod, Murodali singari qo'shma ismlar ham antroponimlik doirasida yasalgan va atoqli otlarga xos leksemalardir.

Nomlarda, ismlarda xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l insonning orzu-umidlari, ma'naviy-axloqiy, diniy-falsafiy qarashlari e'tiqodlari insonlarga bo'lgan hurmati, farzandiga qaratilgan mehr-muhabbati o'z ifodasini topgan. Har bir inson farzandni dunyoga keltirar ekan, unga munosib ism qo'yishni orzu qiladi. Bu ismlar bevosita va bilvosita farzand taqdiriga qay darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbek tilida qo'llanilayotgan ismlarning ayrimlarini quyidagicha guruhlashimiz mumkin.

- Agar tana organizmda biror bir ortiqchalik bo'lsa, Ziyoda, Ziyodbek, Ortiq, Oltiboy, Ziyodulla kabilar...
- Tana organizmda xoli yoki biror nishoni bo'lsa: Xolida, Xolbib, Xolboy, Xolmo'min, Xoldor, Anor, Anora, Tojiddin, Tojixol, Norbek, Norxol kabilar....
- Agar chaqaloq tug'ilishi qiyin bo'lsa: Ochil, Ochilboy, Ochildi kabilar...
- Farzandning tug'ilgan kuni bilan bog'liq ismlar: Juma, Chorshanbi, Odina, Xojiakbar, Jumagul kabilar...
- Farzand ismiga otasining yoshi aks etishi: Qirqboy, Saksonboy, Oltmishboy, To'qsonboy
- Bolani tug'ilgan oy nomi bilan nomlanishi: Asad, Rajab, Maharram, Ramazon, Safar, Mavluda, Barot kabilar...
- Tug'ilgan mavsum nomlari bilan nomlanishi: Navro'z, Hayitmutod, Navro'za, Bahoroy, Bahora, Bayramali, Qurbon, Qurbonboy kabilar...
- Agar farzand yashash manzilidan boshqa joyda tavallud topsa: Mehmon, Yo'lchi, Yo'lchiboy, Mehmonali kabilar...
- Agar ota-onaning uzoq kutilgan farzandi bo'lsa: Quvonch, Umid, Umida, Quvobek, Tilov, Tilovberdi kabilar...
- Agar ota-ona qiz farzandni kutayotgan bo'lsa, o'g'il tug'lsa, o'g'il kutayotgan bo'lsa qiz tug'lsa: O'g'iloy, Uljon, Ultuv, Adash, Maqsad, Feruz kabilar...
- Farzandini qo'lga ololmayotgan va nobud bo'layotgan bo'lsa: Tursunboy, Tursunpo'lat, To'xtasin, Yuzmurod, Turg'unoy, Tursunoy, Turg'un kabilar...
- Farzand tug'ilganda ota yoki onasi vafot etsa: Yodgor, Yodgora, Yodgorbek, Merosbek kabilar...
- Tana a'zolari qo'sh bo'lsa yoki tish bilan tug'ilganiga qarab: Bo'ritosh, Bo'ri, Bo'rigul, Bo'rixon, Qo'shboy, Qo'shoq, Qo'shboq kabilar....
- Islomiy qarashda tug'ilgan farzandlarga: Sunnat, Sunatullo, Musulmon kabilar...
- Bola ismida farzandlar qatoridagi o'rinning aks etishi: Avvalbek, Robiya, Panji, Chori, Soniya kabilar...
- O'zbek farzandalarining ismiga xorij kino yulduzlariga taqlid sifatida qo'yilgan ismlar: Samir, Zinnura, Amir, Nihon kabilar...

Farzandga ism qo'yish azal-azaldan ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan an'anadir. Bunda ota-onaning qarindosh-urug'larining xohish va niyatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ismlarni tanlashda an'anaviy nomlar orasidan tanlash avloddan avlodga oiladan oilaga o'tib kelayotgan me'rosiy omildir. Chunki har qanday ism ostida u qaysi tilda qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha tilda so'zlovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Bu borada shoir va yozuvchilarimiz o'z asar qahramonlariga qo'yilayotgan ismni zukkolik bilan tanlaydilar. Ayniqsa bu borada adibimiz Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasidagi Bo'rixon obraziga to'xtaladigan bo'lsak, asar mazmunida uning ismi xatti-harakatini o'sha ism orqali ochib beradi. Bo'rixon ismi ostida uning "yovvoyi hayvon "bo'ri kabi xatti-harakatlari asarda keng urg'u berib ochib beriladi. Hattoki onasi Saodat aya oradan 50 yil o'tib "bu bolani men emas, bo'ri tuqqan" degan xayolga boradi. Misol tariqasida ism qo'yish borasida Abdulla

Qahhor ham o'ziga xos usulga ega so'z san'atkori hisoblanadi. Masalan "O'g'ri" hikoyasida bosh qahramon sifatida Qobil bobo ismini tanlaydi. Shu ism orqali asarda uning xatti-harakatlarini, xususiyatini ochib berishga harakat qiladi. Asarlar mazmuni shu ismlarga mos tarzda ism va asar mazmunini sharhlashga xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, insonga qo'yilgan ismlar o'sha insonning fe'l-atvori va hayotiga ma'lum bir ma'noda ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. –T.: Oʻqituvchi, 1985.-B.17.
2. Begmatov E.A. Oʻzbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. –B.264
3. Suslova A.V., Superanskaya A.V. O russkix imenax. – L.: Lenizdat, 1991.